

9. Barack Obama. National Security Strategy Remarks. Washington DC, 2015.
10. Bundesministerium des Innern. Polizeidienstliche Standards in Deutschland. – Berlin, 2019.
11. Bundeswehr. Training and Fitness Regulations for Military Personnel. – Berlin, 2020.
12. Klaus Weinbauer. Stressresistenz und Polizei: Wissenschaftliche Analysen. – Berlin, 2017.
13. Deutsche Hochschule der Polizei. Ausbildungskonzepte für Polizeibeamte. – Münster, 2018.
14. Shinzo Abe. Speech on Security and Discipline in Japan. – Tokyo, 2017.
15. Japan National Police Academy. Training Standards for Police Officers. – Tokyo, 2020.
16. Tanaka, H. Cultural Aspects of Police Training in Japan. Kyoto University Press, 2018.
17. МВД РФ. Нормативные требования по физической подготовке сотрудников органов внутренних дел. – Москва, 2018.
18. Росгвардия. Порядок проведения ежегодных нормативных испытаний по физической подготовке. – Москва, 2019.
19. Военный университет МО РФ. Программы физической подготовки военнослужащих в экстремальных условиях. – Москва, 2020.
20. Иванов С.А. Патриотическое воспитание и физическая культура в системе силовых структур России. – Москва, 2017.
21. NATO Allied Command Operations. Physical Fitness Testing Standards for Allied Forces. – Brussels, 2020.
22. NATO Training Mission. Resilience and Stress Inoculation Programs. – Mons, 2019.
23. European Security Journal. Collective Fitness and Security in NATO Structures. – London, 2021.
24. FBI Academy Fitness Program, Washington D.C., 2019.
25. Japan National Police Agency, “Discipline and Physical Preparedness Framework,” – Tokyo, 2020.
26. China Public Security University Training Manual. – Beijing, 2018.
27. NATO Training and Education Command Report. – Brussels, 2021.
28. Russian MVD Order No. 340 “On Special Ranks and Incentives”. – Moscow, 2017.
29. U.S. Department of Justice. Law Enforcement Fitness Standards. – Washington, 2020.
30. Japanese National Police Agency. Police Service System. – Tokyo, 2019.
31. NATO. Operational Training and Simulation Systems. – Brussels, 2021. // Электрон тестлаш платформаси ҳақида методик қўлланма. – М.: Россия ИИБ Академияси, 2020.



NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI



AYNIDINOV
Sardor Ikrom o'g'li

*Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti xodimi,
Toshkent davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon miqyosida global muammoga aylangan narkojinoyatlarga qarshi kurashish va giyohvandlikning oldini olish borasidagi xalqaro huquqiy asoslar hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilgan. Tadqiqot doirasida AQSH va Kanadaning sohaga oid profilaktika va ilmiy yondashuvlari, Portugaliyaning insonparvarlikka asoslangan dekriminallashtirish modeli hamda Fransiyaning uyushgan narkobiznesga qarshi jazo muqarrarligini ta'minlash borasidagi qonunchilik islohotlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: narkojinoyat, giyohvandlik, Portugaliya modeli, AQSH, Fransiya, Kanada tajribasi, regressiv model, liberal model, barqaror model, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik, latentlik, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается международно-правовая база и передовой опыт зарубежных стран в борьбе с преступлениями, связанными с наркотиками, и предотвращении наркомании, которые стали глобальной проблемой во всем мире. В исследовании анализируются превентивные и научные подходы США и Канады к этой области, гуманитарная модель декриминализации Португалии и законодательные реформы Франции, направленные на обеспечение неизбежности наказания за организованный наркотрафик.

Ключевые слова: наркопреступления, наркомания, португальская модель, опыт США, Франции, Канады, регрессивная модель, либеральная модель, устойчивая модель, сотрудничество с правоохранительными органами, латентность, отягчающие обстоятельства.

Abstract. This article analyzes the international legal frameworks and advanced experiences of foreign countries in combating drug-related crimes and preventing drug addiction, which has become a global challenge. Within the framework of the study, the preventive and scientific approaches of the United States and Canada, the humane decriminalization model of Portugal, and the legislative reforms of France aimed at ensuring the inevitability of punishment for organized drug trafficking are comparatively examined.

Keywords: drug crimes, drug addiction, Portuguese model, experience of the USA, France, Canada, regressive model, liberal model, stable model, cooperation with law enforcement, latency, aggravating circumstances.

Dunyoda narkojinoyatlariga qarshi kurashish, jamiyatda giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish orqali inson salomatligini ta'minlashga obyektiv zarurat sifatida qaraladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, 15–64 yosh oralig'ida bo'lgan har 17 kishidan bittasi oxirgi 12 oy davomida hech bo'lmaganda bir marotaba giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni

iste'mol qilgan. Shuningdek, so'nggi 10 yilda dunyoda giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilar soni 22 foizga ortib, 316 mln. nafarga yetgan. Bu raqamlar giyohvandlik vositalarining yangi turlarini tadqiq etish, ularning “Darknet” va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish tizimini va normativ-huquqiy bazani takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Global miqyosda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish faoliyati bir nechta xalqaro, ya'ni BMTning quyidagi hujjatlarga tayanadi:

1) 1961-yilgi Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi yagona konvensiya. Mazkur hujjat a'zo davlatlarga giyohvandlik moddalarining tibbiy va ilmiy maqsadlardan tashqari har qanday muomalasini cheklash va jinoiylashtirish majburiyatini yuklaydi;

2) 1971-yilgi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya. Sintetik preparatlar va psixotrop moddalarni xalqaro nazoratga olish tartibini belgilaydi;

3) 1988-yilgi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya. Prekursorlar (giyohvandlik vositalarini tayyorlash uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalar) nazorati, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash va kontrabanda tushunchasini jinoiy-huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish to'g'risidagi xalqaro aktlar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari va prekursorlarning qonuniy ishlab chiqarilishi, tayyorlanishi hamda ularning savdosini tartibga solishni ko'zda tutadi. Konvensiyalar, shuningdek, nazorat ostidagi moddalarning tibbiy va ilmiy maqsadlar uchun mavjudligi masalasiga ham daxldor bo'lib, a'zo davlatlar zimmasiga nazorat ostidagi moddalardan tibbiy bo'lmagan maqsadlarda foydalanishning oldini olish uchun qonunlar va strategiyalar qabul qilish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish hamda giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchi shaxslarni barvaqt aniqlash, davolash, qayta tarbiyalash va ijtimoiy reabilitatsiya qilish choralari ko'rish majburiyatini yuklashini ta'kidlash o'rinli.

Shu o'rinda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash faoliyati shartli ravishda uchta, ya'ni repressiv, liberal va barqaror modellarga bo'linadi. Quyida ayrim davlatlar misolida ushbu modellarning amaliy natijalarini ko'rib chiqamiz.

AQSH va Kanada tajribasi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda maktabga asoslangan profilaktika dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, AQSHning 2002-yilda qabul qilgan "Xavfsiz va giyohvandlik moddalarisiz maktablar va jamoalar to'g'risida"gi qonunida barcha maktablarda xavfsiz, intizomli va giyohvandlik moddalaridan xoli o'quv muhitini yaratishni rag'batlantirish borasidagi sa'y-harakatlar aks etgan. Mazkur qonun doirasida ishlab chiqilgan grant dasturlardan biri – "Life Skills Training" (Hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish) dasturi hisoblanadi.

Giyohvandlik vositalari iste'mol qilinishining oldini olishga qaratilgan "Life Skills Training" dasturi, asosan, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga olib keladigan ijtimoiy-psixologik omillarga qaratilgan hamda shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u beradigan yangi profilaktika strategiyasidir [1, 577]. Uning bosh maqsadi – alkogol, tamaki va narkotik moddalarni iste'mol qilishning uzoq muddatli xavfini kamaytirishdan iborat. "Life Skills Training" dasturi giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga undovchi ijtimoiy ta'sirga faol qarshi turish, salbiy ta'sirga moyillikni kamaytirish, giyohvandlik vositalariga nisbatan immunitet va xabardorlikni oshirish hamda ularni iste'mol qilish motivatsiyasini pasaytirish uchun zarur bo'lgan bilim, munosabat va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [5].

Bundan tashqari, 1973-yilda AQSH qonunchiligiga kiritilgan normalar tahlili shuni ko'rsatadiki, transmilliy narkotrafik guruhlarini fosh etishda jazolarning keskinligi (umrbod qamoq jazosi) bilan bir qatorda, jinoiy guruhning ichki zanjirini uzishga qaratilgan rag'batlantiruvchi normalardan ham keng foydalanilgan [6]. Xususan, narkotik moddalar manbasini ochiq, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilgan shaxslarga jazoni keskin kamaytirish imkoniyatining berilishi hamda ma'lumot beruvchilarni moddiy rag'batlantirish institutining huquqiy mustahkamlanishi – latent narkojinoyatlarni barvaqt fosh etishda samarali kriminologik taktik vosita bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish faoliyatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan yaqindan ham-

korlik qilgan shaxslarni rag'batlantirish choralari qonunchilikda yetarlicha aks etmagan. To'g'ri ayrim huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan ichki ishlar organlarida muayyan turdagi jinoyatlar haqida tezkor ma'lumot bergan ishonchli shaxslarni rag'batlantirish tizimi mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda qabul qilgan "Narkotiklarga qarshi kurashish fidoyisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi 717-son qarori bilan "Narkotiklarga qarshi kurashish fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etilgan. Biroq, faqatgina ma'naviy tusdagi bunday mukofotlar fuqarolarning yashirin xarakterga ega bo'lgan ushbu turdagi jinoyatlarni fosh etishdagi faolligini oshirish uchun yetarli emas, nazarimizda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 3-noyabr farmonining 13-band "b" kichik xatboshisida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, xususan, narkojinoyatlar haqida xabar bergan va ularni fosh etishga ko'maklashgan shaxslarni moddiy rag'batlantirishning aniq mexanizmlarini belgilovchi Hukumat qarorini qabul qilish lozim deb hisoblaymiz.

Kanada tajribasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qaramlik muammosi huquqbuzarlik yoki jinoiy jazo obyekt sifatida emas, balki, eng avvalo, jamoat salomatligi inqirozi sifatida baholanadi. Ushbu ijtimoiy xavfga qarshi kurashishda davlat siyosati, ilm-fan va amaliyotni integratsiya qilish zarurati ustuvor hisoblanadi.

Xususan, 1988-yilda Kanada Parlamenti tomonidan "Kanada psixoaktiv moddalar iste'moli va giyohvandlik bo'yicha markazi to'g'risida"gi qonun (Canadian Centre on Substance Use and Addiction Act) qabul qilingan. Mazkur qonun asosida alkogol, narkotiklar va boshqa psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish muammosini umummilliy miqyosda, tizimli va ilmiy asosda hal etish vazifasini bajaruvchi Kanada psixoaktiv moddalar iste'moli va giyohvandlik bo'yicha markazi (Canadian Centre on Substance Use and Addiction) tashkil etilgan. Ushbu markaz o'z faoliyatida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo'yicha davlat organlari, biznes hamjamiyati, kasaba uyush-

maları, professional tashkilotlar va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan strategik hamkorlikni amalga oshiradi. Shuningdek, idoralararo axborot almashinuvi, zamonaviy ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy etish, hayotiy va samarali profilaktik strategiyalarni ishlab chiqish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalarni muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda.

Kanadaning giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatida ilmiy yondashuvga tayangan holda ixtisoslashtirilgan organni tashkil etishi xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib e'tirof etilganligini ta'kidlash o'rinlidir. Haqiqatan ham mazkur illatga qarshi kurashishda faqatgina jazo choralari qo'llash bilan cheklanib qolmasdan, balki muammoning ijtimoiy-tibbiy va kriminologik jihatlarini ham chuqur tahlil etishimiz lozim bo'ladi.

Portugaliya tajribasi (liberal yondashuv). Portugaliyaning 2000-yil 29-noyabrdagi 30/2000-son qonuni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy asoslarni, shuningdek, shifokor retseptsiz bunday moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslarning sog'lig'ini saqlash va ijtimoiy himoya qilish tartibini belgilab bergan. Mazkur qonunning 2-moddasiga ko'ra, qonunda ko'rsatilgan jadvallarga kiritilgan o'simliklar, moddalar yoki preparatlarni shaxsiy iste'mol qilish maqsadida sotib olish va o'zida saqlash jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi, balki ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi. Ushbu qonun normalari nuqtai nazaridan, yuqoridagi bandda ko'rsatilgan moddalarni shaxsiy iste'mol qilish uchun sotib olish va o'zida saqlash miqdori bir kishining o'rtacha 10 kunlik iste'moli uchun zarur bo'lgan miqdordan oshmasligi talab etiladi [7]. Portugaliya jinoyat qonunchiligi muqaddam jinoyat hisoblangan ayrim qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni bekor qilib, o'rniga tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirgan holda ma'muriy ta'sir choralari qo'llashni nazarda tutadi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash borasidagi bunday yondashuvda ma'muriy jazo sanksiyalari asosan jarima va rasmiy ogohlantirish berish kabi choralar bilan ifodalangan. Shu bilan birga, Portugaliya qonunchiligi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi

kurashishda faqatgina davolash va ma'muriy javobgarlik tizimi bilan cheklanib qolmaydi. BMTning 1988-yilda qabul qilgan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi asosida mamlakatda 1993-yil 22-yanvarda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi va iste'mol qilinishiga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy rejimni tasdiqlash to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunning 21-moddasida I dan III gacha bo'lgan jadvallarga kiritilgan o'simliklar, moddalar yoki vositalarni yetishtirsa, ishlab chiqarsa, tayyorlasa, qayta ishlasa, taklif qilsa, sotuvga qo'ysa, sotsa, tarqatsa, sotib olsa, boshqa shaxsga bersa yoki har qanday asosda qabul qilib olsa, shuningdek, import va eksport qilsa, tranzit o'tkazsa yoki qonunga xilof ravishda saqlasa, 4 yildan 12 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanishi nazarda tutilgan [9; 240 b.].

Yana shuni ta'kidlash lozimki, Portugaliya jinoyat qonunchiligida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga nisbatan jazo tayinlashda quyidagi holatlar jazoni og'irlashtiruvchi shartlar sifatida e'tirof etiladi:

narkotik moddalar yoki preparatlar voyaga yetmaganlarga yoxud ruhiy jihatdan zaif shaxslarga berilgan bo'lsa;

qilmish natijasida mazkur moddalar yoki preparatlar ko'p sonli shaxslar o'rtasida ommaviy tarqatilgan bo'lsa;

aybdor jinoyi qilmish oqibatida juda katta miqdorda moddiy daromad olgan bo'lsa yoki uni olishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa;

aybdor ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish, fosh etish yoki ularga barham berish majburiyati yuklatilgan mansabdor shaxs bo'lsa;

aybdor shifokor, farmatsevt yoki sog'liqni saqlash tizimining xodimi, qamoqxona xizmati yoxud ijtimoiy moslashuv muassasalari xodimi, pochta, telegraf, telefon yoki telekommunikatsiya xodimi, o'qituvchi, pedagog-tarbiyachi yoki ta'lim muassasasi xodimi, shuningdek, ijtimoiy yordam ko'rsatish institutlari xodimi bo'lsa va ushbu qilmish bevosita o'z kasbiy faoliyatini bajarish jarayonida sodir etilgan bo'lsa;

aybdor xalqaro miqyosda boshqa turdagi

transmilliy uyushgan jinoyi faoliyatlarda ishtirok etgan bo'lsa;

aybdor ushbu jinoyatni sodir etish orqali boshqa g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishni maqsad qilgan yoki ishtirok etgan bo'lsa;

qilmish giyohvandlikka qaram shaxslarni davolash va rehabilitatsiya muassasalarida, qamoqxonalarda, harbiy qismlarda, ta'lim muassasalarida yoki o'quvchilar yoxud talabalar ta'lim, sport yoki ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanadigan boshqa joylarda yoxud ularga bevosita tutash hududlarda sodir etilgan bo'lsa;

aybdor voyaga yetmaganlar yoki ruhiy jihatdan zaif shaxslarning ko'magidan foydalangan holda qilmishni sodir etgan bo'lsa;

aybdor giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi (21-modda) hamda prekursorlar va kimyoviy xomashyolar muomalasi (22-modda) bilan bog'liq jinoyatlarni takroran sodir etishga mo'ljallangan jinoyi guruh a'zosi sifatida, ushbu guruhning kamida bir nafar boshqa a'zosi bilan o'zaro til biriktirib harakat qilgan bo'lsa;

narkotik moddalar yoki preparatlar qayta ishlov berish yoki ularni boshqa moddalar bilan aralash-tirish natijasida qasddan sifati buzilgan, o'zgartirilgan yoki qalbakilashtirilgan bo'lib, bu holat o'zgalar hayoti yoxud sog'lig'i uchun jiddiy xavfning ortishiga sabab bo'lgan bo'lsa [9; 241 b.].

Portugaliya Sog'liqni saqlash vazirligining Narkologik xulq-atvor va qaramlikka qarshi kurashish instituti tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlarga ko'ra, jinoyat sodir etgan vaqtida bevosita narkotik modda ta'siri ostida bo'lgan voyaga yetgan mahkumlar ulushi 2014-yilda 42 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 31 foizgacha pasaygan [8; 4-b.]. Shuningdek, infeksiyon vositalari (shpris) orqali yuqadigan og'ir infeksiyon kasalliklar, jumladan OITS va virusli gepatitning qayd etilish holatlari keskin kamaydi. Dekriminalizatsiya siyosati amaliyotda zararni kamaytirish dasturlarini keng joriy etishga, tibbiy nazorat va tizimli profilaktika choralari kuchaytirishga zamin yaratdi, bu esa jamoat salomatligi ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, davolash va rehabilitatsiya xizmatlariga ixtiyoriy murojaat qilayotgan yoshlarning soni ortib bormoqda. Bu esa Portugaliya modelining insonparvarlik prinsiplariga asoslangan ham-

da kriminologik va ijtimoiy jihatdan samarali profilaktika siyosati ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Fransiya tajribasi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha xalqaro qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvaridan noyabrigacha bo'lgan davrda vakolatli organlar tomonidan jami 47 tonna kokain musodara qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilda musodara qilingan narkotik miqdoridan ikki baravar ko'pdir. 2024-yilda 197 ming nafarga yaqin kishi narkotik moddalarning iste'moli uchun jarimaga tortilgan bo'lib, bu holat o'tgan yilning mos davriga nisbatdan 21 foizga ko'p demak [10; 37 b.].

Narkovaziyatning keskinlashuvi munosabati bilan Fransiya parlamenti 2025-yil 29-aprelda amaldagi qonunchilikka jiddiy o'zgartishlar kiritishni tasdiqladi. Mazkur islohotlar doirasida quyidagi strategik choralar nazarda tutilgan:

- uyushgan narkojinoyatchilik bo'yicha maxsus ixtisoslashgan Milliy prokuraturani tashkil etish;
- jinoyi guruhlar rahbarlarining (narkobaronlar) panjara ortidan turib o'z imperiyalarini boshqarishlariga yo'l qo'ymaslik uchun qamoqxonalarda alohida kuchaytirilgan izolyatsiya tartibini joriy etish;
- narkotik moddalardan orttirilgan jinoyi daromadlarni legallashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat korxonalari faoliyatini tugatish mexanizmlarini soddalashtirishga ruxsat berish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilgan shaxslarni huquqiy va moddiy rag'batlantirish choralari kuchaytirish.

Foydalanilgan manbalar

1. Moshki, M., Hassanzade, T., & Taymoori, P. (2014). Effect of Life Skills Training on Drug Abuse Preventive Behaviors among University Students. International Journal of Preventive Medicine, 5 (5).
2. BMTning 1961-yil 30-martdagi Giyohvandlik moddalari to'g'risidagi yagona konvensiya – URL: https://www.unodc.org/pdf/convention_1961_en.pdf.
3. BMTning 1971-yil 21-fevraldagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya. – URL: https://www.unodc.org/pdf/convention_1971_en.pdf.
4. BMTning 1988-yil 20-dekabrda Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya. – URL: https://www.unodc.org/pdf/convention_1988_en.pdf.
5. Life Skills Training (LST): A classroom-based universal prevention programme to reduce long-term risk of alcohol, tobacco and drugs in middle school. Xchange prevention registry.
6. A bill relating to narcotic drugs. 93rd United States Congress (1973-1974). – URL: <https://www.congress.gov/bills/93rd-congress/senate-bill/911?hl=narcotic+drug&s=3&r=7>.
7. Portugal. Lei n.º 30/2000.29.11. – URL: <https://diariodarepublica.pt/dr/detalhe/lei/30-2000-599720>.
8. Statistical Bulletin 2023: Illicit Substances / Institute on Addictive Behaviours and Dependencies (ICAD). – Lisbon: ICAD, 2024.
9. Portugal. (1993). Decreto-Lei n.º15/93, de 22 de janeiro. Aprova o regime jurídico aplicável ao tráfico e consumo de estupefacientes e substâncias psicotrópicas. – URL: <https://files.dre.pt/1s/1993/01/018a00/02340252>.
10. Доклад Международного комитета по контролю над наркотиками за 2025 год // ООН: Вена – 2026 год.